

„ALISHER NAVOIY ADABIY ME'ROSI"

Termiz davlat pedagogika institute Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bsoqich 206-guruh talabasi

Jo'rayeva Malohat Odiljon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarining ma'no va mazmunini teran anglab yetish, u bilan faxr-iftixor tuyg'usini his qilish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, san'at, she'riyat, g'azal mulkining sultoni, devon, o'zbek adabiyoti, jonfidolik, hikmatlar, ulug' shoir, mutafakkir, qit'a, xalq, ma'naviy tanazzul, olam, muqaddima, adabiy ko'prik, syudjet, go'zallik, nafosat, faxr-iftixor, mazmun, ma'no.

Alisher Navoiy bobomiz g'azallarining ma'no va mazmunini teran anglab yetish uchun va u bilan faxrlanish tuyg'usi biz kelajak avlodda juda kuchli.

Boshimizni baland ko'taramiz, zero, biz shunday buyuk zotning avlodlarimiz.

Buyuk mutafakkirimizning tug'ilgan kunlari bizning tug'ilgan kunimizdir. O'zbek adabiyotining, go'zallik va nafosatining tug'ilgan kunidir!

G'ayrat va himmat zarur

Tuxum yerga kirib, chechak bo'ldi,

Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.

Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmi?

Pilla qurticha himmating yo'qmi?

(„Badoye ul-bidoya" devonidan)

Darhaqiqat, buyuk shoirimizning jonfidolik borasidagi atigi to'rt misradan iborat ushbu nazmiy durdonasiga singdirilgan ma'noning benihoya teran va hayotiyligidan hayratga tushamiz. Biroq, ba'zida trikchilik bahonasida



atrofimizdagi kishilarga, (ular xoh begona bo'lsin, xoh yaqinimiz) ularga ko'mak berishga himmatimiz yoxud o'zimiz uchun oshib-toshib yotgan g'ayratimiz ham yetmay qoladi.

Qariyb bundan olti asr muqaddam, ulug' shoirimiz bu hikmatni bitayotganda kun kelib ana shu da'vati avlodlarga yetib borishiga, ular qalbida g'ayrat va himmat tuyg'ularini uyg'otishiga katta umid bog'lagan bo'lsa ne ajab.

Albatta, ulug' shoir ijodini har kim o'z bilimi, saviyasi darajasida idrok qiladi, tushunadi va talqin etadi. Ma'lumki, inson ko'ksidagi qalbining tirikligi, uyg'oqligi boshqa mavjudotlardan ustundir. Qalbini uyg'otadigan, bilim nuri bilan boyitib turadigan eng yaxshi vositalardan biri bu badiiy adabiyotdir. Shuning uchun ham qo'lga qalam olib adabiyotga kirayotgan har bir ijodkor buning qanchalik katta mas'uliyat ekanini his etib turadi. Shu mulohazalar asosida yana mumtoz adabiyotimizning muazzam siymolaridan biri Alisher Navoiyga yuzlanamiz. Hazrat Navoiydek zotlar, avvalo, adabiyotning asosiy quroli bo'lgan so'zga shunchaki yo'l-yo'lakay yozib yoki aytilib ketaveradigan oddiy hodisa sifatida qaramaganlar. Har bir nasrning isrofidan saqlangan donishmandimiz, mumtoz adabiyotimiz so'ziga Allohning mo'jizakor ne'mati o'laroq munosabatda bo'lib, uning ham isrofidan tiyilganlar. Navoiy so'z san'ati borasida tug'ma daho ekanini ham e'tirof etardi. Buni u otaxoni Sayid Hasan Ardasheriga yozgan she'riy maktubida shunday ifodalagan:

Falak ko'rmadi, men kabi nodire,

Nizomiy kibi nazm aro qodire.

Ne nazme der ersan meni dardnok,

Ki har harfi bo'lg'ay ani durri pok.

Etar Tengridin ancha quvvat manga,

Ki bo'lmas bitiriga fursat manga.



Ayni shu maktubida agar Firdavsiy o'z „Shohnoma”sini o'ttiz yilda yozgan bo'lsa, men buni o'ttiz oyda yozishim mumkin. Xos ma'noda bo'lsin, iyhom san'atida bo'lsin kunda yuz bayt bitish, men uchun holvadek gap emas deydi.

Ki har necha nutq o'lsa hohilsaroy,

Bitgaymen o'ttiz yilin o'ttiz oy.

Agar xossa ma'no iyhom gar erur

Aning bunda yuz bayti xalbom erur.

Darhaqiqat, shoirning hali yigitlik chog'larida aytgan ushbu so'zlarini keyinchalik ortig'I bilan bajarganligin I aytib o'tirmasa ham bo'ladi.

Oradan yillar o'tib Sulton Husayn Boyqaroning qistovi bilan „Xazoyin ul-ma'oniyy” kulliyotini tuzar ekan debochasida hammani hayron qoldirib shunday fikrlarni aytib o'tadi:

Shoirliqi ila shuhra qilib otimni,

Zoi qildim she'r ila avqotimni.

Emdi tuzayin Tengriga toatimni,

Ko'p elga mushavvash etmay abotimni.

Qarang bobomiz nima demoqda shoirlik bilan vaqtimizni o'tkazib yuborib, ko'p xalqqa ziyon qilib yuboribman, endi umrimni toat-ibodatda o'tkazaman deb aytadi.

Navoiy umri davomida qanchalik ko'p ilmiy-adabiy me'ros qoldirilganligiga qaramasdan kamtarlik qilmoqda. Bunday o'ziga xos kamtarlikNavoiydek zotlarga xos va mos fazilat hisoblanadi.

Shoirning so'z haqidagi falsafiy-estetik qarashlari uning „Hayrat ul-abror” dostonida ham o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Alisher Navoiyning o'zi so'z aytishdan maqsad ma'no bo'lishi kerak ekanligini talab qilar ekan, yozganlarida biron ma'no mazmun bo'lmasa-da o'zlarini ahli ma'ni deb da'vo qiluvchi kimsalarni qattiq tanqid qiladi.

Lavzlari bemaza tarkibi sust,

Nosara ma'ni-yu ado nodurust.



Barchasig'a daviyu ma'niyi xos,

Xoslarim topmay alardin xolos.

Navoiy she'ni Chin go'zaliga o'xshatadi. Mutafakkir „Saddi Iskandariy” dostonining muqaddimasida „, butun olamdan, hatto olamdan tashqaridagi mavjudotlardan ham murod-maqсад odamdir” degan fikrni ilgari suradi. Qizig'i shundaki, Navoiydan bir asr keyin ijod qilgan Uilyam Shekspir drama va sonetlarida aynan Navoiy ilgari surgan komil inson g'oyasini targ'ib etadi.

Alisher Navoiyning asarlari nafaqat o'zimizda, balki, chet el mamlakatlarida, sharq va g'arb mamlakatlarining o'quvchilari orasida ham ma'lum va mashhurdir. Mutafakkirimiz asarlariga Shekspir, Barni, Xebermen, Choser, Dante, Xottenberg kabi yozuvchilar qiziqish bildirgan.

Navoiy asrlarining ingliz tiliga tarjimasini va ularning chet ellarga targ'iboti ham dolzarb vazifalarda biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Navoiy me'rosini asrab-avaylab, ularni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazib berish bizning oliy maqsadlarimizdan biridir. Men o'zbek adabiyoti tarixini mutafakkirimiz asarlarisiz tasavvur eta olmayman. Naavoiy bobomiz adabiyot tarixiga tamal troshini qo'yib ketgan buyuk inson hisoblanadi. U nafaqat shoir, balki, davlat ishlarida ham o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk davlat arbobi hisoblanadi. Navoiy Sulton Husayn Boyqaroning bosh vaziri bo'lib ishlagan hamda uning eng yaqin do'sti bo'lgan.

Navoiyning buyuk shoir bo'lishida Husayn Boyqaroning o'zni, Boyqaroning ma'rifatli podsho bo'lishida do'stining ko'rsatgan xizmatlari beqiyosdir.

Bu haqida dalillar keltirsak, ul muhtaram zotning Sulton Husayn Boyqaro bilan munosabati borasida tarixchi Xondamir „Makorim ul-axloq” tarixiy asrida „oliy martabali, sof niyatli, saltanat suyanchig'I, mamlakat ustuni, xoqoniya davlatining yordamchisi, Sulton hazratlarining yaqini” deb ma'lumot bersa, Bobur o'z „Boburnoma”sida „Alisherbek begi emas, muzahibbi edi” deya ta'kidlaydi. Navoiy bobomizning oqilona maslahatlari tufayli malakatdagi juda ko'p



chigalliklar, mojarolar hal qilinadi. Ota- bola, qirol va shahzodalar o'rtasidagi nizolar ham bartaraf etiladi.

Bularni misol tariqasida keltirishimdan maqsad, Navoiyning nafaqat shoir, balki buyuk davlat arbobi ekanligini ham anglatmoqchiman. Bu ikkala mas'uliyatli va sharafli vazifalarni mutafakkirimiz teng olib borganlar. Bu juda katta kuch va mas'uliyat talab qiladi.

Navoiy qo'liga qalam olgan har bir shaxsning, bunga mas'uliyat bilan yondashish kerakligi, mas'uliyatli bo'lishi haqida uqtirgan. O'z ustida tinimsiz ishlash kerakligini ta'kidlashdan charchamagan.

Bugungi kunda bizning vazifamiz bobomizning asarlarini, ilmiy me'rosini o'qib-o'rganib, tahlil qilib, ma'no-mazmunini chuqur anglashimizoldimizdagi eng katta vazifalarimizdan biridir. Shunday buyuk insonlar avlodi ekanligimdan faxrlanaman.

